NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

## 2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

# Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**




**2019- yil**




**2020- yil**




**2021- yil**

2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi **62,8** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **12,2** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-martida **1750** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **7,6** foizga ko‘p demakdir.

## 2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **630** ta, sanoatda **532** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **206** ta, qurilishda **129** ta, yashash va ovqatlanishda **64** ta, tashish va saqlashda **48** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## 2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 96,4
- Sanoat 38,8
- Qurilish 94,4
- Investitsiya 75,2
- Savdo 92,4
- Xizmatlar 66,1
- Eksport 42,0
- Import 82,4

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 27 812 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 1 750 |

2021- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2021- yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da

| | |
|---|---|
| Savdo | 34,8% |
| Sanoat | 24,3% |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 9,3% |
| Qurilish | 8,6% |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 5,1% |
| Tashish va saqlash | 3,8% |
| Axborot va aloqa | 1,6% |
| Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 2,0% |
| Boshqa faoliyat turlari | 10,6% |




Yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo‘yicha yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

| | 2020- y. | 2021- y. | |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 8369 | 9474 | +1105 |
| Chust | 1860 | 2310 | +450 |
| Namangan | 1682 | 2001 | +319 |
| Uychi | 1437 | 1851 | +414 |
| To’raqo’rg’on | 1361 | 1807 | +446 |
| Kosonsoy | 1358 | 1714 | +356 |
| Pop | 1305 | 1688 | +383 |
| Uchqo’rg’on | 1227 | 1549 | +322 |
| Chortoq | 1135 | 1537 | +402 |
| Yangiqo’rg’on | 1029 | 1359 | +330 |
| Norin | 1001 | 1326 | +325 |
| Mingbuloq | 928 | 1196 | +268 |

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## 2021- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

2021- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Namangan shahri – 25,8 %, Chust tumani – 9,2 %, To’raqo’rg’on tumani – 9,2%, Chortoq tumani – 8,8 %, Norin tumani – 7,3 %, Uychi tumani - 6,8 %, Pop tumani - 6,4 % hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




Ma’lumot uchun: 2021– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:

**Savdoda**
630 ta

**Sanoatda**
532 ta

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida**
206 ta

**Qurilishda**
129 ta

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2021- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 12,2 birlikni tashkil etdi.

## Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*




2021- yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan tumanida 14,8 birlik, Namangan shahrida 14,6 birlik, Mingbulloq tumanida 14,1 birlik, Chust tumanida 13,0 birlik, Chortoq tumanida 12,4 birlikni tashkil etgan.

## 2021– yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-mart holatiga ko‘ra***

**Eng yuqori ko‘rsatkich**
**Namangan tumani - 14,8 birlik.**

**O‘rtacha ko‘rsatkich**
**Chortoq tumani - 12,4 birlik.**

**Past ko‘rsatkich**
**Yangiqo’rg’on tumani - 10,0 birlik.**

2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Namangan tumanida 14,**8** birlik, Namangan shahrida 14,**6** birlik, Mingbuloq tumanida 14,**1** birlik, Chust tumanida 13,0 birlik, Chortoq tumanida 12,**4** birlikni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda ***




** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 37,8 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 42,0 % ini tashkil etdi.






Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

## 2021 yilnig yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0%, Kosonsoy tumanida – 65,4 %, Uychi tumanida – 65,1%, Namangan shahriida – 54,0 % va Pop tumanida – 34,3 %ni, eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida – 2,6 %ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **101,9** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **82,4** % ini tashkil etdi.



2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiqo’rg’on tumanida – 100,0 %, Chortoq tumanida – 99,7 %, Norin va Uychi tumanlarida – 96,7 %, Kosonsoy tumanida – 94,7 %, Namangan shahrida – 85,8 %. Eng past ko‘rsatkich Chust tumanida - 12,4 %ni tashkil etdi.

**2021 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1096,3** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (505,9 mlrd. so'm), Uychi (102,2 mlrd. so'm), Kosonsoy (80,8 mlrd. so'm), Namangan (78,1 mlrd. so'm) va To'raqo'rg'on (57,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Uchqo'rg'on tumanida (21,1 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2021- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **38,8** % ni tashkil etdi.

## 2021- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0%), Kosonsoy tumani (97,6%), Chust tumani (73,1%), Pop tumani (63,4%), Namangan shahri (54,1%) tashkil etdi. Mingbuloq tumanida (8,4%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi**

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **2591,1** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,4** % ini tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **5,2** % ga o‘sishi kuzatildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (1195,2 mlrd. so‘m), Chust (236,7 mlrd. so‘m), To’raqo’rg’on (153,7 mlrd. so‘m), Pop (143,3 mlrd. so‘m), Uychi (133,2 mlrd. so‘m) va Kosonsoy (118,1 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2021- yilning yanvar- martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi**




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **932,6** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **94,4** % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **111,9** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (300,2 mlrd. so‘m), Namangan (91,0 mlrd. so‘m), Uychi (90,2 mlrd. so‘m), Kosonsoy (59,5 mlrd. so‘m), Chust va Yangiqo’rg’on (53,7 mlrd. so‘m), To’raqo’rg’on (53,5 mlrd. so‘m) hamda Uchqo’rg’on (52,9 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

**2021- yilning yanvar- martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati






**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi**

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1610,0** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,1** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **105,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (391,7 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (132,5 mlrd. so'm), Chust (122,1 mlrd. so'm), Pop (121,3 mlrd. so'm), Kosonsoy (115,6 mlrd. so'm), Uychi (114,3 mlrd. so'm) va Namangan (113,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2021- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**



# 2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda




Yuk aylanmasida




Yo‘lovchi tashishda




Yo‘lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,1 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 100,6 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 83,4 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,0 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,8 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,8 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 90,8 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,0 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **1178** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 544(46,2%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 581(49,3%) tasi sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 53(4,5%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsim-lanishi (ulushi) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 7,0 % (82 ta), sanoatda – 22,8 % (268 ta), qurilishda – 7,3 % (86 ta) , savdoda – 39,0 % (460 ta), xizmatlar sohasida – 23,9 % (282 ta) ni tashkil etdi.

**2021- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**






# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (402 ta), Pop (109ta), To'raqo'rg'on va Uchqo'rg'on (75 ta), Namangan va Uychi (73 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning I choragida, oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi xizmatlar sohasida 49,6 %ni, savdoda 48,0 %ni, sanoatda 47,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 74,4 %ni, qurilishda 51,2 %ni, savdoda 48,7 %ni, xizmatlar sohasida 46,5%ni tashkil etdi.

**2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagi oʻzgarishlar istiqboli boʻyicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi oʻzgarishlar istiqboli** boʻyicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi sanoatda 74,3 %ni, savdoda 73,3 %ni, xizmatlar sohasida 72,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi oʻzgarishlar istiqboli** boʻyicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng koʻp ulushi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 34,1 %ni, qurilishda 27,9%ni, xizmatlar sohasida 27,7%ni tashkil etdi.

.

